

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo‘yicha ko‘rilgan choralar to‘g‘risida axborotnoma

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazining Korrupsiyaga qarshi kurash “Komplayens nazorati” tizimini joriy etish bo‘yicha 2021-2022-yillarga mo‘ljallangan yo‘l xaritasi, “Komplayens nazorati” tizimi guruhi tarkibi Ilmiy-metodik kengashning 2021-yil 1-dekabrdagi 5-son majlis bayoni qarori bilan ma‘qullanib, Davlat test markazi direktorining 2021-yil 15-dekabrdagi 01-918-son buyrug‘iga muvofiq tasdiqlandi va amalga oshirishga kirishildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, BMT Texnik Dasturining “O‘zbekistonda samarali, hisob beruvchi va shaffof boshqaruv institutlari orqali korrupsiyaga qarshi kurashish” loyihasi bilan birgalikda ISO 37001:2016 korrupsiyaga qarshi standartlardan kelib chiqib, tashkilotda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimini joriy etuvchi hujjatlar to‘plami ishlab chiqildi va ushbu hujjatlar to‘plamiga quyidagilar kiritildi:

“Davlat test markazining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha siyosati”;

“Davlat test markazida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti”;

“Davlat test markazida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha nizom”;

“Davlat test markaziga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish reglamenti”;

“Davlat test markazi xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha yo‘riqnoma”;

“Davlat test markazida kontragentlarni tekshirishga oid yo‘riqnoma”;

“Davlat test markaziga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha yo‘riqnoma”;

“Davlat test markazida korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti”;

“Davlat test markazida korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha nizom”;

“Davlat test markazi xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o‘tkazish bo‘yicha reglament”.

Davlat test markazida korrupsiyaga qarshi profilaktik tadbirlarni kuchaytirish, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash, korrupsiyaga

qarshi chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish maqsadida Davlat test markazi direktorining 2021-yil 15-dekabrda 01-919-son buyrug'i qabul qilindi.

Shu asosda Davlat test markazining korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi, Davlat test markazining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturi ishlab chiqilib, tasdiqlandi. Dastur doirasida:

O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga test sinovlari orqali qabul qilish bo'yicha qabul qilingan va qabul qilinayotgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga oid ekspertizadan o'tkazib borish;

test sinovlarini yil mobaynida o'tkazish imkoniyatini beruvchi, barcha zaruriy xavfsizlik choralari bilan ta'minlangan hamda jarayonni ochiq va oshkora o'tkazish imkoniyatini beruvchi katta sig'imli binolarni barpo etish va jihozlash;

inson omilini kamaytirish maqsadida test sinovlarini sun'iy intellektdan keng foydalangan holda onlayn rejimda tashkil etishni yo'lga qo'yish;

zamonaviy axborot texnologiyalari, dasturiy mahsulotlar va ma'lumotlarni qayta ishlovchi vositalardan, aloqa va ma'lumotlar uzatish vositalaridan foydalanishda axborot xavfsizligini ta'minlash;

test materiallari bankini yaratish, ko'p variantli savollar kitoblarini shakllantirish hamda nashr ishlarida xavfsizlikni yanada kuchaytirish;

test sinovi nazoratchilarini tayyorlash va saralash ishlarini yanada takomillashtirish;

test topshiruvchilar uchun test sinovi tartibi bo'yicha ko'rsatmalar ishlab chiqish, ularning turli korrupsion sxemalarga aralashib qolishini oldini olish;

test sinovlarini adolatli o'tkazish, shaffofligini ta'minlash, test sinovlarida jamoatchilik nazoratini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha choralarni amalga oshirish;

xodimlarni lavozimga tayinlash bo'yicha mehnat shartnomalarini rasmiylashtirish ishlarining shaffofligini ta'minlash, manfaatlar to'qnashuvini aniqlash va bartaraf etish;

jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiyaviy xabarlarini qabul qilish va belgilangan tartibda ko'rib chiqish;

xodimlarda korrupsiyaga qarshi immunitetni shakllantirish va ularning odob-axloq qoidalariga rioya qilishini ta'minlash;

budjet mablag'larini, shuningdek, budjetdan tashqari mablag'larni xarajatlar smetasida ko'zda tutilgan muayyan maqsadlarga to'g'ri sarflanishi, pul mablag'lari va moddiy qimmatliklarning butligini nazorat qilish kabi tadbirlar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan.

Shuningdek, Davlat test markazining korrupsiyaga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar ro'yxati shakllantirilib, mazkur lavozim egalari uchun sohaga oid maxsus o'quv seminarlar tashkil etilishi belgilandi.